MINIMAL SHAROITDA NUTQIY RIVOJLANISHGA XIZMAT QILUVCHI METODLAR

Ro‘ziyeva Nozimaxon Oybek qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
Maxsus pedagogika: logopediya yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya
Mazkur maqolada minimal sharoitlarda bolalar nutqini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali metodlar, ularning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Tadqiqot davomida nutq rivojlanishining ilk bosqichlarida oilaviy muhit, kundalik muloqot, didaktik o‘yinlar, badiiy adabiyotlar, ertaklar, suhbat metodlari hamda xalq og‘zaki ijodi namunalarining ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, maxsus texnik vositalar va qimmatbaho jihozlar mavjud bo‘lmagan sharoitlarda ham bolaning lug‘at boyligini oshirish, bog‘lanishli nutqini rivojlantirish, fonematik idrokini shakllantirish hamda kommunikativ kompetensiyalarini takomillashtirish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *nutqiy rivojlanish, minimal sharoit, kommunikativ kompetensiya, lug‘at boyligi, didaktik o‘yinlar, muloqot, fonematik idrok, bog‘lanishli nutq, 204edagogic yondashuv, logopedik faoliyat.*

KIRISH

Nutq insonning ijtimoiylashuvi, bilimlarni o‘zlashtirishi va atrof-muhit bilan samarali muloqotga kirishishida muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, bolalik davrida nutqning to‘g‘ri shakllanishi bolaning intellektual, psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli bolalar nutqini rivojlantirish masalasi pedagogika, logopediya, psixologiya va defektologiya fanlarining dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, maxsus didaktik vositalar va zamonaviy ta’lim resurslaridan keng foydalanish imkoniyatlari mavjud bo‘lsa-da, barcha oilalar va ta’lim muassasalari ham bunday sharoitlarga ega emas. Ayrim hududlarda moddiy-texnik bazaning cheklanganligi, maxsus mutaxassislarning yetishmasligi yoki iqtisodiy omillar sababli bolalarning nutqiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun minimal sharoitlardan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Biroq ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolaning nutqini rivojlantirishda qimmatbaho vositalardan ko‘ra muntazam muloqot, nutqiy faollikni rag‘batlantirish va maqsadli pedagogik yondashuvlar muhimroq ahamiyat kasb etadi.

Minimal sharoitda nutqiy rivojlanishga xizmat qiluvchi metodlar orasida suhbat, hikoya qilish, ertak va she’rlar bilan ishlash, didaktik hamda rolli o‘yinlar, predmetli-amaliy faoliyatlar, savol-javob mashqlari va kundalik hayotiy vaziyatlardan foydalanish alohida o‘rin tutadi. Ushbu metodlar bolalarning lug‘at boyligini oshirish, grammatik jihatdan to‘g‘ri nutqni shakllantirish, fonematik idrokni rivojlantirish hamda bog‘lanishli nutq ko‘nikmalarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bolalar nutqini rivojlantirish masalasi pedagogika, psixologiya va logopediya fanlarida alohida o‘rin tutadi. Nutqning shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlari ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo‘lib, ularning ilmiy qarashlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Jumladan, L.S.Vigotskiy nutq va tafakkur rivojlanishini o‘zaro bog‘liq jarayon sifatida tavsiflaydi. Olimning ta’kidlashicha, bolaning nutqi avvalo ijtimoiy muloqot vositasi sifatida shakllanadi va keyinchalik ichki nutqqa aylanadi. Shu sababli bolaning nutqiy rivojlanishida kattalar bilan muloqot va hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi [1.89-b]. Bundan tashqari A.R. Luriya ham o‘z tadqiqotlarida nutqning bilish jarayonlariga ta’sirini o‘rganib, nutq inson psixik faoliyatining muhim tarkibiy qismi ekanligini asoslab bergan. Uning fikricha, nutqning rivojlanishi xotira, tafakkur, diqqat va idrok jarayonlarining takomillashuviga xizmat qiladi [2.47-b]. Bu esa albatta bolaning nutqiy komponenti bilish jaraonlari bilan o‘zaro chambarchas bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Bilish jarayonlari esa bolaning o‘yin faoliyati orqali rivojlanadi. Ayni shu xususdagi fikrlarni ilgari surgan rus olimi D.B.Elkonin maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatida o‘yinlarning o‘rnini tahlil qilib, aynan rolli va didaktik o‘yinlar nutqni rivojlantirishning samarali vositasi ekanligini ta’kidlaydi. O‘yin davomida bolalar yangi so‘zlarni o‘zlashtiradi, muloqotga kirishadi va bog‘lanishli nutq malakalarini rivojlantiradi [3.112-b].

O‘zbekistonlik olimlarning tadqiqotlarida ham maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning samarali usullari yoritilgan. Jumladan, suhbat, hikoya tuzish, ertaklar bilan ishlash, savol-javob metodlari va didaktik o‘yinlar bolalar lug‘atini boyitish hamda nutqiy faollikni oshirishning muhim vositalari sifatida e’tirof etiladi [4.35-b]. Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda bolaning nutqiy rivojlanishi uchun qimmat texnik vositalardan ko‘ra, rivojlantiruvchi nutqiy muhit, muntazam muloqot va maqsadli pedagogik yondashuvlar muhimroq ekanligi qayd etilgan. Bu esa minimal sharoitlarda ham samarali natijalarga erishish mumkinligini ko‘rsatadi [5.28-b]. Ayni shu xususda tahlil qilingan ilmiy manbalar asosida shuni ta’kidlash mumkinki, minimal sharoitlarda nutqiy rivojlanishga xizmat qiluvchi metodlarning samaradorligi, avvalo, pedagog va ota-onalarning nutqiy faoliyatni to‘g‘ri tashkil etishiga bog‘liq. Muloqotga asoslangan yondashuvlar, didaktik o‘yinlar va kundalik hayotiy vaziyatlardan foydalanish bolalar nutqini rivojlantirishning eng maqbul vositalari hisoblanadi.

TADQIQOT METODLARI

Mazkur tadqiqotda bolalar nutqini minimal sharoitlarda rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodlarni o‘rganish maqsadida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, kuzatish, taqqoslash va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida mahalliy va xorijiy olimlarning nutq rivojlanishiga oid ilmiy qarashlari o‘rganilib, amaliyotda qo‘llanilayotgan samarali metodlar tahlil qilindi.

Minimal sharoitlarda bolalar nutqini rivojlantirishda quyidagi metodlardan foydalanildi:

Suhbat metodi. Ushbu metod orqali bolalar bilan kundalik hayot, oila, tabiat va atrof-muhit haqida muloqot tashkil etiladi. Suhbat jarayonida bolalarning lug‘at boyligi kengayadi va bog‘lanishli nutqi rivojlanadi.

Ertak va hikoyalar bilan ishlash metodi. Ertaklarni tinglash, qayta hikoya qilish va mazmunini tahlil qilish bolalarning eslab qolish, fikrlash hamda nutqiy ifoda ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Didaktik o‘yinlar metodi. "Bu nima?", "Kim nima qiladi?", "Ortiqchasini top" kabi o‘yinlar bolalarning so‘z boyligini oshirish va grammatik jihatdan to‘g‘ri nutqni shakllantirishga yordam beradi.

Rolli o‘yinlar metodi. "Do‘kon", "Shifokor", "Mehmon kutish" kabi o‘yinlar davomida bolalar muloqotga kirishadi, dialogik nutq va kommunikativ ko‘nikmalarni egallaydilar.

Savol-javob metodi. Bolalarni mustaqil fikrlashga undash orqali nutqiy faollik oshiriladi hamda to‘liq va mazmunli gap tuzish malakalari rivojlantiriladi.

Rasm asosida hikoya tuzish metodi. Rasmlarni kuzatish va ular asosida hikoya yaratish bolalarning tasavvuri, tafakkuri hamda bog‘lanishli nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, minimal sharoitlarda ham muloqotga asoslangan metodlardan muntazam foydalanish bolalar nutqining lug‘aviy, grammatik va kommunikativ jihatdan rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, minimal sharoitlarda ham bolalar nutqini samarali rivojlantirish mumkin bo‘lib, bunda asosiy rolni maxsus texnik vositalar emas, balki muloqotga asoslangan pedagogik yondashuvlar egallaydi. Kundalik suhbat, didaktik o‘yinlar, ertak va hikoyalar bilan ishlash hamda savol-javob metodlari bolalarning nutqiy faolligini sezilarli darajada oshiradi. Yuqoridagilarni amalga oshirishdan oldin nutqiy rivojlanishning nimaligini, uni qanday holatda kechishini o‘rganish, bola bilan shug‘ullanishda tog‘ri metod va vositalardan foydalanish imkonini beradi.

Nutqiy rivojlanish — bu bolaning shaxsiy, intellektual va ijtimoiy taraqqiyotini belgilovchi muhim omildir. Ayniqsa, maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim bosqichlarida to‘g‘ri tashkil etilgan mashg‘ulotlar bolalarning til boyligini oshirish, mantiqiy tafakkurini rivojlantirish, kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonda qo‘llaniladigan mashg‘ulot turlarini ilmiy-metodik asosda tashkil qilish zarur bo‘ladi. Chunki har bir mashg‘ulot turi bolaning individual imkoniyatlari, yosh xususiyatlari va psixologik tayyorgarligiga mos ravishda rejalashtirilishi lozim. Avvalo, nutqiy rivojlanishga xizmat qiluvchi mashg‘ulotlarni mazmuniga ko‘ra quyidagi turlarga ajratish mumkin: og‘zaki nutqni rivojlantirish mashg‘ulotlari, fonetik-fonematik tahlil mashg‘ulotlari, lug‘at boyligini kengaytiruvchi mashg‘ulotlar, grammatik qurilmani shakllantiruvchi mashg‘ulotlar, hikoya tuzish va matn asosida qayta hikoya qilish mashg‘ulotlari, dramalashgan o‘yinlar asosidagi nutqiy faoliyat mashg‘ulotlari.



Minimal sharoitda nutqni rivojlantirishda mashg‘ulot va metodlarni kerakli paytda qo‘llay olish ayniqsa muhimdir. Chunki bolaning nutqiy komponentlari bilan bir qatorda psixologik va ijtimoiy xususiyatlari ham rivojlanib boradi. Ayni shu xususda, bola rivojlanishini taminlovchi metodlarda birinchi navbatda didaktik o‘yinlardan foydalanish ayniqsa muhim. Didaktik o‘yinlar bolalarning lug‘at boyligini kengaytirish va grammatik nutqni rivojlantirishga xizmat qiladi[6.45-b]. Bu esa bolaning nafaqat nutqiy balki ijtimoiy ko‘nikmalarini ham rivojlanishiga yordam beradi.

Rolli o‘yinlar bolalarda dialogik nutq va kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantiradi[7.88-b]. Rolli o‘yinlarni minimal sharoitda bolalarga qo‘llash ularning ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Bunday o‘yinlar natijasida bolada atrofdagilar bilan faol muloqot qilish, rolga krishish, jumlalarni o‘z o‘rnida qo‘llay olish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Bolalar bilan ishlashda faqatgina o‘yin faoliyatidan foydalanibgina qolmay turli ertak va hikoyalardan foydalanish ham bolaning nutqiy rivojlanishi yaxshilashga yordam beradi. M.Sodiqovaning fikriga ko‘ra ertak va hikoyalar bilan ishlash bolalarda tasavvur, mantiqiy fikrlash va nutqiy ifodani rivojlantiradi[8.41-b]. Darhaqiqat, ertak va hikoyalar bolalarning nafaqat nutqini, balki ularning umumiy kognitiv rivojlanish jarayonini ham faollashtiradi. Bunday badiiy matnlar orqali bola yangi so‘zlarni o‘zlashtiradi, ularning ma’nosini kontekstda tushunadi va nutqida to‘g‘ri qo‘llashga harakat qiladi. Bu esa lug‘at boyligining kengayishiga xizmat qiladi. Shuningdek, ertak va hikoyalar bolalarda eshitish va diqqatni jamlash qobiliyatini rivojlantiradi. Syujetni kuzatish, voqealar ketma-ketligini tushunish va qahramonlar xatti-harakatini tahlil qilish jarayonida mantiqiy fikrlash shakllanadi. Natijada bola o‘z fikrini izchil va tushunarli ifodalashga o‘rganadi. Bundan tashqari, ertaklar tarbiyaviy ahamiyatga ham ega bo‘lib, ularda aks etgan ijobiy va salbiy obrazlar orqali bolalarda axloqiy me’yorlar shakllanadi. Bu jarayon nutqiy faoliyat bilan uyg‘un holda kechib, bolaning kommunikativ kompetensiyasini mustahkamlaydi.

Muntazam tashkil etilgan nutqiy mashg‘ulotlar bolalarda bog‘lanishli nutqni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega[9.62-b]. Shu bois, minimal sharoitlarda ham nutqiy rivojlanishni ta’minlash imkonini beruvchi metodlar tizimli ravishda qo‘llanilganda, bolalarda bog‘lanishli nutqning shakllanishi sezilarli darajada tezlashadi. Oddiy suhbatlar, savol-javoblar, kuzatish asosida tasvirlash hamda qisqa matnlarni qayta hikoya qilish kabi usullar mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanishga xizmat qiladi. Bunday yondashuvlar nafaqat nutqiy faollikni oshiradi, balki bolalarning fikrini izchil bayon etish, so‘z boyligini kengaytirish va muloqotga kirishish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Eng muhimi, bu metodlar maxsus jihozlar yoki murakkab sharoitlarni talab qilmaydi, shu sababli har qanday ta’lim muhitida qo‘llash mumkin.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, minimal sharoitlarda bolalarning nutqiy rivojlanishini ta’minlash pedagogik jarayonda alohida yondashuvni talab etadi. Mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish orqali ham samarali natijalarga erishish mumkinligi ushbu mavzu doirasida tahlil qilindi. Oddiy suhbat, savol-javob, kuzatish asosida tasvirlash, ertak va hikoyalarni tinglash hamda qayta hikoya qilish kabi metodlar bolalarning nutqini rivojlantirishda muhim o‘rin tutishi aniqlandi. Shu bilan birga, minimal sharoitlarda nutqiy faoliyatni samarali tashkil etish o‘qituvchi va tarbiyachining ijodkorligi, metodik tayyorgarligi hamda individual yondashuviga bevosita bog‘liq ekanligi ham muhim xulosa sifatida qayd etiladi. Umuman olganda, minimal sharoitlarda nutqiy rivojlanishga xizmat qiluvchi metodlarni to‘g‘ri va tizimli qo‘llash bolalarning nutqiy hamda aqliy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Mazkur yondashuvlar pedagogik jarayonni individuallashtirish va differensiallashtirish imkonini berib, har bir bolaning imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim samaradorligini oshiradi. Shuningdek, bunday metodlar asosida olib boriladigan ishlar bolalarda kognitiv jarayonlarning: idrok, xotira, diqqat va tafakkurning rivojlanishini faollashtiradi, bu esa nutqiy faoliyat bilan bevosita bog‘liqdir. Natijada bolalarda leksik va grammatik kompetensiyalar shakllanib, ularning bog‘lanishli nutqni qurish qobiliyati mustahkamlanadi. Bundan tashqari, ushbu metodlar korreksion-pedagogik ishlar tizimida ham muhim o‘rin tutib, nutqida kamchiligi bo‘lgan yoki rivojlanishi sust kechayotgan bolalar bilan ishlashda ijobiy natijalar beradi. Ular orqali bolalarda kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy moslashuv va o‘zini ifoda etish ko‘nikmalari bosqichma-bosqich rivojlanadi. Xulosa sifatida aytganda, minimal sharoitlarda nutqiy rivojlanishga yo‘naltirilgan metodlarni ilmiy asosda, izchil va maqsadli qo‘llash ta’lim jarayonining sifatini oshiradi hamda bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlovchi muhim pedagogik omil sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Vigotskiy L.S. Myshleniye i rech (Tafakkur va nutq). – Moskva: Pedagogika, 1982
2. Luriya A.R. Yazik i soznaniye (Til va ong). – Moskva: MGU, 1979
3. Elkonin D.B. Psixologiya igri (O‘yin psixologiyasi). – Moskva: Pedagogika, 1978
4. Muminova L.R. Logopediya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020

5. Ayupova M.Yu. Logopediya. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2019
6. Urolbayeva Sh.O. “Nutq rivojlanishining pedagogik asoslari”. Ilmiy maqolalar to‘plami, 2024
7. Rasulova Z. “Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish metodlari”. Pedagogika jurnali, 2023
8. Sodiqova M.M. Maktabgacha ta’limda nutq o‘stirish metodlari. Toshkent, 2020
9. Karimova N.A. Bolalar nutqini rivojlantirish metodikasi. Toshkent, 2021